Avloniy hikmatlari

https://pda.uzkimyosanoat.uz/oz/manaviyat/kun-hikmati/avloniy-hikmatlari

Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir

Abdulla Avloniy

Tarbiya-pedagogika, ya’ni bola tarbiyasining fani demakdir. Bolaning salomat va saodati uchun yaxshi tarbiya, tanni pok tutmoq, yosh vaqtida maslakni tuzatmoq, yaxshi xulqlarni o‘rgatmoq tabiblardek kabidurki, tabib xastaning badanidagi kasaliga davo qilg‘oni kabi tarbiyachi bolaning vujudidagi jahl markaziga “yaxshi xulq” degan davoni ichidan, “poklik” degan davoni ustidan berib katta qilmog‘i lozimdir.

Abdulla Avloniy

Tarbiyani tug`ilgan kundan boshlamoq, vujudimizni quvvatlantirmoq, axloqimizni kuchlantirmoq, zehnimizni rivojlantirmoq lozim

Abdulla Avloniy

Tug`ib tashlash bilan bo`lmas bola, bo`lg`ay balo sizga, Vujudi tarbiyat topsa bo`lur ul rahnamo sizga Temirchining bolasi tarbiyat topsa, bo`lur olim, Buzilsa xulqi, Luqmon o`g`li bo`lsa, bo`lg`usi zolim.

Abdulla Avloniy

Fikr agar yaxshi tarbiyat topsa, Xanjar, olmosday bo’lur o’tkir.

Abdulla Avloniy

Maktab misni tillo qilur, Maktab sizni mullo qilur

Abdulla Avloniy

Эng yomon kishilar ilmga amal qilmaydigan kishilar-dir. Agar tarbiya qiluvchi muallim olim bo`lib amalsiz bo`lsa, bu shogirdlar axloqiga yomon ta`sir ko`rsatadi.

Abdulla Avloniy

Moziyga qaytib ish ko’rish xayrlikdir.

Abdulla Avloniy

Bargi daraxton sabz dar nazari hushyor, Har varaqash tabiati ro`zg`or

Abdulla Avloniy

Kerak tarbiyat yoshlikdan kerak, Ulug‘ bo‘lsa lozim kelur g‘am yemak.

Abdulla Avloniy

Dangasalik har vaqt insonni xor qilur.

Abdulla Avloniy

Olim kishilar har yerda aziz va hurmatlidurlar.

Abdulla Avloniy

Dars ila tarbiya orasida bir oz farq bor bo’lsa ham, ikkisi bir-biridan ayrilmaydigan, birining vujudi biriga boylangan jon ila tan kabidir.

Abdulla Avloniy

G’azabning avvali jinnilik, oxiri nadomatdir.

Abdulla Avloniy

Fikr tarbiyasi eng kerakli, ko’p zamonlardan beri taqdir qilinub kelgan, muallimlarning diqqatlariga suyalgan muqaddas bir vazifadur.

Abdulla Avloniy